

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

"FUNDAMENTAL IQTISODIYOTI" KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 338.43(575.1)

RUZIMURODOV OBIDJON ASKARJONOVISH

INSON KAPITALI SIFATINI YAXSHILASH ORQALI MILLIY
IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHЛИGINI OSHIRISH
ISTIQBOLLARI

70310101 - Iqtisodiy nazariya mutaxassisligi bo'yicha

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.n. dots.

Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevish

TOSHKENT-2023

Magistirlik dissertatsiya ishi “Fundamental iqtisodiyot” kafedrasida dastlabki himoyadan o’tgan.

2-sonli bayonnomma «25 » anpercb 2023 y.

Ilmiy rahbar: dots. Xajiev B.D.



Talaba: Ruzimurodov O

Dissertatsiya Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil “18” 05 № 4/03 raqami bilan ro’yxatga olingan.

“Himoya tavsiya etiladi”

“Fundamental iqtisodiyot” kafedrası

mudiri, dots. Mamaraximov B.E. Марахимов

“___” may 2023 yil

Himoya 2023 yil “19” may soyat 10:00 da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo’lib o’tadi.

ANNOTASIYA

Tadqiqotning asosiy maqsadi inson kapitali sifatini yaxshilash orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish istiqbollari bo'yisha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat bo'lib hisoblanadi. Tadqiqot davomida bir qator savollar, ya'ni ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida inson kapitalini tadqiq qilish borasidagi nazariy yondashuvlar, inson kapitali va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi o'rtasidagi munosabatlar tahlili va ishlab chiqarish jarayonida inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmi uni inson kapitali sifatini yaxshilashga ko'maklashuvshi institutlar samaradorligini oshirishning iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga ta'siri o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning ilmiy-uslubiy jihatlari, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda inson kapitalini takror ishlab chiqarishning tashkiliy va iqtisodiy sharoitlari kabi savollar o'rta ga tashlanadi.

Qolaversa, inson kapitali sifatini yaxshilash orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari va istiqbollariga qanday ta'sir qilishini aniqlash asosiy muammolardan bo'lib turibdi. Tadqiqot natijalari bo'yicha inson kapitali sifatini yaxshilash orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun 6 ta taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: *milliy iqtisodiyot, inson kapitali, inson kapitali sifati, innovatsiya, raqobatbardoshlik, investitsiya, ilmiy texnik taraqqiyot.*

ABSTRACT

The main goal of the research is to develop a scientific proposal and practical recommendations on the prospects of increasing the competitiveness of the national economy by improving the quality of human capital. In the course of the research, two questions were asked, that is, a systematic approach to the research of investment capital in the development of social enterprises in Japan, the analysis of the relationship between investment capital and the competitiveness of the national economy, and the mechanism of increasing the efficiency of the use of investment capital in the production process. The scientific-methodological aspects of the interrelationship between the effects, the organizational and economic framework of developing the inco capital in increasing the competitiveness of the national economy are questioned.

In addition, determining how to improve the quality of human capital affects the priority directions and perspectives of increasing the competitiveness of the national economy has become one of the main problems. Based on the results of the research, 6 proposals and recommendations were developed to improve the competitiveness of the national economy by improving the quality of human capital.

Key words: *national economy, human capital, quality of human capital, innovation, competitiveness, investment, scientific and technical development.*

MUNDARIJA

Annotasiya	2
Mundarija	4
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	5
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	6
Keltirilgan qisqartmalar ro‘yxati.....	7
I BOB. KIRISH.....	8
1.1. Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	8
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalar.....	9
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
1.4. Tadqiqot ob’ekti va predmeti.....	11
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	11
1.6. Dissertasiya tarkibining qisqasha tavsifi.....	11
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	14
2.1. Inson kapitali sifatini yaxshilash orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar.....	14
2.2. Inson kapitali sifatini yaxshilash orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish to‘g‘risida mamlakatimiz olimlarining qisqacha fikrlari	19
2.3. Inson kapitali sifatini yaxshilash orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish to‘g‘risida xorijlik olimlarning fikrlari.....	23
III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI.....	30
3.1. Tadqiqotning metodologik asoslari.....	30
3.2. Inson kapitali va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi o‘rtasidagi munosabatlar tahlili	30
3.3. Ishlab shiqarish jarayonida inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmi	38
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	52
4.1. Milliy iqtisodiyotda inson kapitalini shakllantirishning iqtisodiy taxlili xususiyatlari	52
4.2. Inson kapitali sifatini yaxshilashga ko‘maklashuvshi institutlar samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari taxlili.....	66
V BOB. XULOSA.....	75
5.1. Tadqiqotning asosiy ilmiy va amaliy yangiligi va natijasi.....	76
5.2. Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar.....	77
5.3. Tadqiqot qamrovi chegaralari	78
5.4. Kelajakdagi taqiqotlar uchun tavsiyalar.....	78
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	79

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Jahonda inson kapitalining mazmun-mohiyatiga ko‘ra raqobatbardoshlik va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omili sifatidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jalon bankining ma’lumotlariga ko‘ra “141 ta davlat global milliy boylik tarkibida inson kapitalining ulushi so‘nggi yigirma yil davomida 55%ga o‘sgan. Inson kapitalining Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a’zo bo‘lgan yuqori daromadli mamlakatlari milliy boyligidagi ulushi 70%, quyi daromadli mamlakatlari bo‘yicha 41%ni tashkil etadi¹”. Inson kapitalining holati to‘g‘ridan-to‘g‘ri aholi turmush farovonligi va umuman iqtisodiy o‘sishga ta’sir etishiga ko‘ra an’anaviy omillarga nisbatan fan-ta’lim, intellektual taraqqiyotning o‘rni va ahamiyati yanada ortib borishi kuzatilmoque da.

Bugungi kunda global va milliy darajada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda inson kapitalidan samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini global o‘zgarishlarga ko‘ra takomillashtirish borasidagi tadqiqotlarga muhim ahamiyat qaratilmoqda. Bu boradagi tadqiqotlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o‘zgarishlarni e’tiborga olgan holda “inson kapitali” kategoriyasining mazmun-mohiyatini aniqlashtirish, innovatsion rivojlanish sharoitida inson kapitalining ta’sirini baholash uslubiyatini takomillashtirish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki optimalligini ta’minlagan holda inson kapitalini rivojlantirishda xususiy sektor faoliyatini qo‘llab-quvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish sharoitida inson kapitali ahamiyatini yanada oshirishning nazariy-uslubiy asoslarini takromillashtirish kabi yo‘nalishdagi tadqiqotlar ustuvor darajada amalga oshirilishi tashkil etilmoqda.

O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida inson kapitalini takror hosil qilish va undan samarali foydalanish borasida ta’lim-fan sohalarini sifat jihatdan rivojlantirish, uzuksiz ta’lim sharoitida ishlab chiqarish integrasiyasini chuqurlashtirish, inson kapitalini rivojlantiirshni davlat

¹ Uza.uz-O‘zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy web sayti.